



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA CHET ELLIKLAR ISHTIROKIDAGI ISHLAR YURISDIKSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Hamidova Nodiraxon Hamidjon qizi

Magistratura va sirtqi ta'lim fakulteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu keltirilgan ilmiy ishda chet ellik fuqarolar ishtirokidagi ishlar bo'yicha yurisdiksiya masalalari tahlil qilinadi. Bunda, O'zbekiston Respublikasining mazkur sohadagi qonunchiligi, xalqaro shartnomalar va ayrim xorijiy davlatlar, xususan, Germaniya, Fransiya, AQSH, Rossiya Federatsiyasi, Yaponiya, JARning qonunchilik tajribalari qiyosiy-huquqiy jihatdan o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Yurisdiksiya, chet elliklar, xalqaro fuqarolik prostsessi, huquqiy maqom, xorijiy tajriba, xalqaro yurisdiksiya.

Аннотация: В данной научной работе анализируются вопросы юрисдикции по делам с участием иностранных граждан. В частности, рассматривается законодательство Республики Узбекистан в данной сфере, международные договоры, а также сравнительно-правовой анализ проводится с учетом законодательства некоторых зарубежных стран, таких как Германия, Франция, США, Российская Федерация, Япония и Южно-Африканская Республика.

Ключевые слова: юрисдикция, иностранцы, международный гражданский процесс, правовой статус, зарубежный опыт.

Annotation: The scientific work analyzes jurisdictional issues in cases involving foreign nationals. It examines the legislation of the Republic of Uzbekistan in this field, international treaties, as well as the legislative practices of certain foreign countries, including Germany, France, the United States, and the Russian Federation, Japan, The Republic of South Africa, through a comparative legal perspective.



Key words: jurisdiction, foreign nationals, international civil procedure, legal status, foreign experience, international jurisdiction.

O'zbekiston Respublikasida chet elliklar ishtirokidagi ishlar yurisdiksiyasini takomillashtirish masalasi iqtisodiy globallashtirish va xalqaro hamkorlikning kuchayishi sharoitida dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi. Chet elliklar bilan bog'liq fuqarolik va tijorat ishlari ko'payishi natijasidamazkur sohada sud tizimining samaradorligini oshirish va xalqaro standartlarga moslashish zarurdir. Bunda, Amerika, Yevropa, Osiyo va Afrikaning sud huquq sohasi ayniqsa yurisdiksiya masalasida boshqa davlatlarga namuna bo'la oladigan davlatlarining ilg'or tajribalariko'rib chiqiladi va O'zbekiston uchun amaliy takliflarni ishlab chiqadi. Shuningdek, global iqtisodiy o'sish sharoitida chet elliklar ishtirokidagi fuqarolik va tijorat ishlari soni ortib bormoqda, bu esa yurisdiksiya masalalarini dolzarb qilmoqda. Xususan, Fransiya va Germaniya Yevropa Ittifoqi (YI) a'zo davlatlari sifatida Brussels I Nizomi (Recast) asosida yurisdiksiyani belgilaydi, Buyuk Britaniya esa BREKSDan keyin milliy qonunchilik va xalqaro shartnomalarga tayanadi.

Aslini olganda, yurisdiksiya sudning muayyan ishni ko'rib chiqish va qaror qabul qilish vakolatini anglatadi. Chet elliklar ishtirokidagi ishlarda yurisdiksiya masalasi xalqaro xususiy huquq, davlatlararo shartnomalar va milliy qonunchilik asosida hal qilinadi. Yevropa Ittifoqida Brussels I Nizomi ushbu masalalarni tartibga soladi, Buyuk Britaniyada esa Brexitdan keyin milliy qonunchilik va Sud tanlovining Gaaga konvensiyasi kabi shartnomalar qo'llaniladi.¹

Fransiya tajribasi. Fransiya Yevropa ittifoqiga a'zo davlatlardan biri hisoblanib, Yevropa Ittifoqining yurisdiksiya qoidalari o'zaro ishonch tamoyiliga asoslanadi, bu esa har bir a'zo davlatning sud tizimi adolatli va samarali ekanligini taxmin qiladi. Brussels I Nizomi quyidagi nazariy asoslarga tayanadi:

¹ Regulation (EU) №1215/2012 of the European parliament of the council, Official Journal of the European Union, 12.12.2012. <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX:32012R1215>



Javobgarni himoya qilish. Mazkur nazariyaga ko'ra, ishda javobgar deb topilgan shaxs o'z yashash hududida sudlanishi adolatli deb hisoblanadi. Bunda javobgarning ham huquqlari qonuniy jihatdan himoya qilingan hisoblanadi.

Huquqiy aniqlik. Standartlashtirilgan qoidalar nizolarni oldini oladi va qarorlarning erkin harakatini ta'minlaydi. Bunda javobgar shaxs qaysi qonunchilik normasini buzganligini va mazkur qoidabuzarlik uchun qanday turdagi jazoga tortilishi mumkinligini aniq bilishi va oldindan mazkur javobgarlikka tayyor bo'lishini ifodalaydi.

Zaif tarafni himoya qilish. Iste'molchilar, xodimlar va sug'urta ishtirokchilari uchun maxsus qoidalar mavjudligi. Bunda ushbu nazariya sudda taraf bo'lgan, huquqlari buzilgan iste'molchilar va xodimlarning huquqlarini va qonuniy manfaatlarini sud orqali himoya qilib, ularning buzilgan huquqlarini tiklashga qaratiladi.

Shuningdek, Fransiya Fuqarolik-protsessual kodeksi 42-moddasiga muvofiq, Fransiya milliy qonunchilik ustunlik mavqeiga ega hisoblansada, lekin Yevropa Ittifoqi ichidagi ishlarda Brussels I Nizomi ustunlik qiladi.

Bundan tashqari, Fransiya huquqiy tizimi napoleon qonunchiligi asosida shakllangan bo'lib, yurisdiksiya, asosan, Fransiya Fuqarolik Kodeksiga asoslanadi², ammo yurisdiksiya bo'yicha qoidalar ko'plab hal qiluvchilar va sud qarorlari orqali amalga oshiriladi. Bunda chet elliklar ishtirokidagi ishlar bo'yicha yurisdiksiya uchun quyidagi omillar muhim hisoblanadi:

Chet el fuqarolariga qarshi da'vo qo'zg'atish. Fransiya qonunchiligi, asosan, fransuz fuqarolari bilan aloqada bo'lgan sudlarning yuridik yuridiksiyasi bilan cheklanadi. Biroq, chet elliklarning ishtirokidagi ishlar Xalqaro xususiyatlarga ega bo'lsa, bu masalalarni yechish uchun Fransiya xalqaro xususiy huquqi va sud qarorlari tizimi ham muhim rol o'ynaydi.

² Code of civil of France, naviguer dans le sommaire du code,

https://www.legifrance.gouv.fr/codes/section_lc/LEGITEXT000006070721/LEGISCTA000006089696/#LEGISCTA000006089696



Xalqaro sudlar. Fransiya, shuningdek, xalqaro nizolarni hal qilish uchun o‘zi tashkil etgan Xalqaro sudlar va arbitraj organlari orqali jahon miqyosidagi nizolarni hal qilishni qo‘llab-quvvatlaydi.

Germaniya tajribasi. Germaniyaning huquqiy tizimi fuqarolik huquqi (civil law) tizimiga asoslanadi va u Germaniya Fuqarolik Kodeksi va boshqa qonunlarga muvofiq ishlaydi³. Germaniyada yurisdiksiya tizimi quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

Germaniya fuqarolari va chet elliklar o‘rtasidagi ishlar. Chet elliklarning ishtirokidagi ishlar Germaniyada Fuqarolik Kodeksining xalqaro normalariga tayangan holda ko‘riladi. Germaniyadagi xalqaro va chet el fuqarolari bilan yuzaga keladigan har qanday nizolarni mazkur kodeksda belgilangan normalarga asoslangan holda nizolarini tartibga soladi.

Xalqaro yuridik yurisdiksiya. Germaniya shuningdek xalqaro sudlar va arbitraj organlari orqali chet el fuqarolari o‘rtasidagi nizolarni hal qiladi. Bunda Germaniya sud tizimida xalqaro sudlar va arbitraj sudlar ham mavjud bo‘lib, mazkur sudlar asosan xalqaro toifadagi ishlarni, chet elliklar ishtirokidagi ishlarni ko‘rib chiqadi.

Shuningdek, Germaniyada sudlar yurisdiksiyani aniqlashda quyidagi omillarni hisobga oladi:

Javobgar yashash joyi. Germaniyada sudlarda yurisdiksiya masalasi hal qilinayotganida avvalo javobgar shaxsning yashash manzili hisobga olinadi va ishlar javobgarlarning yashash manzilidagi mahalliy sudlarda ko‘rib chiqiladi.

Hodisa sodir bo‘lgan joy. Zarar Germaniyada kelib chiqsa, ushbu hududdagi sud ishni ko‘rishga vakolatga ega hisoblanadi.

Xorijiy qarorlar. Germaniyada Yevropa Ittifoqi qarorlari avtomatik tan olinadi, ammo Yevropa Ittifoqidan tashqari qarorlar uchun “exequatur” talab qilinadi.

Buyuk Britaniya tajribasi. Buyuk Britaniyada huquq tizimi asosan umumiy huquq ya’ni “common law” tizimiga asoslanadi⁴, bu esa yurisdiksiyani aniqlashda

³ German Civil Code, Bürgerliches Gesetzbuch (BGB). <https://www.gesetze-im-internet.de/bgb/BJNR001950896.html#BJNR001950896BJNG000102377>



moslashuvchanlikni ta'minlaydi. Bunda Buyuk Britaniyada “Forum non conveniens” tamoyili mavjud bo‘lib, mazkur tamoyilga asosan sudga boshqa davlat sudi qulayroq bo‘lsa, ishni rad etish imkonini beradi. Bu tamoyil xalqaro nizolarda muhim rol o‘ynaydi, sababi, u adolatli sudlovni ta'minlashga xizmat qiladi.

Nazariy jihatdan, yurisdiksiya masalasi xalqaro xususiy huquqning “aloqa” tamoyiliga asoslanadi, ya'ni sudning vakolati ishning Angliya bilan aloqasi mavjudligiga bog‘liq. Mazkur aloqa javobgarlik yashash joyi, tadbirkorlik faoliyati yoki nizo vujudga kelgan joyi bo‘lishi mumkin. Bu bo‘yicha Buyuk Britaniyada bir qator ilmiy maqolalar yozilgan bo‘lib, ulardan biri “British Yearbook of International Law” maqolasi bo‘lib, ushbu maqolada ta’kidlanishicha, davlat o‘z sudlarining vakolatlarini cheklash orqali chet elliklar oldidagi mas’uliyatdan qochib bo‘lmaydi, chunki bu xalqaro huquqning minimal standartlariga zid keladi⁵. Shuningdek Buyuk Britaniya Yevropa Ittifoqining a’zosi sifatida Brussels I Nizomiga amal qilgan, bu esa fuqarolik va tijorat ishlari bo‘yicha yurisdiksiyani belgilash va qarorlarning tan olinishi va ijro etilishini osonlashtirgan. Mazkur Nizomda asosiy qoida sifatida javobgar yashaydigan davlat sudlarini vakolatli deb hisoblagan. Lekin 2021-yil 1-yanvardan boshlab, Buyuk Britaniya Yevropa Ittifoqidan chiqqanidan so‘ng, Brussels I Nizomiga amal qilmasdan mazkur Nizom amaliyotda qo‘llanilmay qo‘ygan. Shundan so‘ng, chet elliklar ishtirokidagi yurisdiksiya masalalari Buyuk Britaniya Fuqarolik protsessual kodeksi va Gaaga konvensiyasiga asoslangan holda amalga oshirila boshladi⁶. Ammi Buyuk Britaniyaning 2021-yilda Yevropa Ittifoqining “Lugano Convention”ga qo‘shilish so‘rovining YI tomonidan rad etilishi etilishi mazkur jarayonni murakkablashtirib yubordi. Buyuk Britaniyada chet elliklar ishtirokidagi ishlar yuzasidan amaliy misollarni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, misol uchun, 2010-yilda Misrda Lady Brownlie avtohalokatga uchrab ma’lum darajada jarohat oladi va uning eri mazkur

⁴ Wikipedia, Law of the United Kingdom. https://en.wikipedia.org/wiki/Law_of_the_United_Kingdom

⁵ Alex Mill, Rethinking Jurisdiction in International Law, British Yearbook of International Law, Volume 84, Issue 1, 2014, Pages 187–239. <https://doi.org/10.1093/bybil/bru003>

⁶ Hague Convention on Choice of Court Agreements 30 June 2005, <https://www.hcch.net/en/instruments/conventions/full-text/?cid=98>



avtohalokatda vafot etadi. Shundan so'ng holat yuzasidan ingliz sudiga murojaat qiladi va ingliz sudida da'vo qo'zg'atdi. Oliy sud mazkur ishda tort eshigi bo'yicha qaror chiqardi, ya'ni agar zarar Angliyada yetkazilgan bo'lsa, hatto dastlabki jarohat chet elda bo'lsa ham, yurisdiksiya o'rnatilishi mumkinligini e'tirof etadi. Sud shuningdek, da'vogar xorijiy davlatning ya'ni Misrning tegishli qonunini isbotlashga majbur emasligini, agar o'rtadagi farq ko'rsatilmagan bo'lsa, ingliz qonuni qo'llanilishini tasdiqladi⁷. Bundan xulosa qilinishi mumkinki, Buyuk Britaniyada chet elliklar ishtirokidagi ishlar bo'yicha yurisdiksiya Fuqarolik-protsessual qonunchiligiga va xalqaro shartnomalarga, xususan Gaaga konvensiyasi asosida belgilanadi, xususan yuqorida ta'kidlanganidek, L. Brownlie ishi orqali yurisdiksiya eshiklarini kengaytirib, da'vogarlarga ingliz sudlarida da'vo qo'zg'atish imkoniyatini oshirdi. O'zbekiston ham mazkur tajribadan foydalanib, xalqaro hamkorlikni mustahkamlashi va milliy qonunchiligini takomillashtirishi mumkin. Bunda yurisdiksiya masalalari yuzasidan xalqaro shartnomalarga xususan Gaaga konvensiyasiga qo'shilishi lozim va bu qo'shilish mamlakatda chet elliklar ishtirokidagi ishlar yuzasidan yurisdiksiya masalalarini sezilarli darajada yengillashtiradi.

Janubiy Afrika Respublikasi. Yuqorida sanab o'tilgan davlatlar qatori Janubiy Afrika Respublikasida (JAR) ham chet elliklar ishtirokidagi ishlar bo'yicha yurisdiksiya masalalari xalqaro xususiy huquqning asosiy tamoyillariga asoslanadi⁸. Bu masalalar, odatda, fuqarolik, tijorat yoki oilaviy nizolar bilan bog'liq bo'lib, unda kamida bitta tomon chet el fuqarosi, chet el yuridik shaxsi yoki chet elda joylashgan subyekt hisoblanadi. Yurisdiksiya masalasi sudning ishni ko'rish vakolatiga ega ekanligini aniqlashdan iborat bo'lib, bu jarayon xalqaro huquqiy normalar, ikki tomonlama shartnomalar va JARning ichki qonunchiligiga tayanadi. Bunda JARda yurisdiksiya masalalari quyidagi asosiy elementlarni o'z ichiga oladi:

⁷ FS Cairo (Nile Plaza) LLC (Appellant) v Brownlie (as Dependant and Executrix of Professor Sir Ian Brownlie CBE QC) (Respondent). <https://www.supremecourt.uk/cases/uksc-2020-0164>

⁸ Forsyth, C. F. (2012). *Private International Law: The Modern South African Perspective*. Juta and Company Ltd. <https://juta.co.za/products/private-international-law-5th-edition/>



Sudning vakolati: Bunda sudga ish kelib tushganda sud ishni haqiqatda o‘zining yurisdiksiyasiga tegishli ekanligi yoki tegishli emasligi holatlarini ko‘rib chiqib ishni ko‘rish huquqiga ega ekanligini aniqlashi lozim.

Qonunlar to‘qnashuvi: Mazkur tamoyilda sud chet elliklar ishtirokidagi ish kelib tushganda mazkur ishni ko‘rishda aynan qaysi davlat qonunchiligi qo‘llanilishi kerakligini belgilash kerak bo‘ladi.

Chet elliklar ishtirokidagi ishlar bo‘yicha yurisdiksiya masalalari davlatlararo huquqiy munosabatlarning adolatli va samarali hal qilinishini ta‘minlashga qaratilgan. Bu jarayon xalqaro savdo, investitsiyalar va migratsiya oqimlarining o‘sishi sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi.

Nazariy jihatda olib qaralganda JARda quyidagi asosiy nazariy yondashuvlar qo‘llaniladi:

Davlat suvereniteti: JAR sudlari o‘z yurisdiksiyasini davlat suvereniteti doirasida belgilaydi. Bu, ayniqsa, chet el sudlari qarorlarini tan olish va ijro etishda muhimdir.

Qonunlar to‘qnashuvi (Conflict of Laws): JARda qonunlar to‘qnashuvi qoidalariga ko‘ra, sudlar nizoda qaysi davlat qonunchiligini qo‘llashni aniqlaydi. Masalan, shartnoma bo‘yicha nizolarda shartnoma tuzilgan joy yoki ijro etilgan joy qonunchiligi qo‘llanilishi mumkin⁹.

Lex fori va Lex causae: JAR sudlari odatda o‘z protsessual qonunchiligini (lex fori) qo‘llaydi, lekin nizoning mazmuni bo‘yicha (lex causae) chet el qonunchiligini tanlashi mumkin.

Xalqaro hamkorlik: JAR xalqaro sud hamkorligi, masalan, hujjatlarni yetkazib berish yoki chet elda dalillarni to‘plashda faol ishtirok etadi.

JARning yurisdiksiya yondashuvi “adolatli sudlov” tamoyiliga asoslanadi, bu esa BMT Inson huquqlari deklaratsiyasi va JAR Konstitutsiyasining 34-moddasida mustahkamlangan.

⁹ South Africa Arbitration Act, 1965. <https://www.gov.za/documents/arbitration-act>



Bundan tashqari, JARning chet elliklar ishtirokidagi ishlar yuzasidan yurisdiksiya masalalaridagi yondashuvi xalqaro huquq normalariga mos kelsada, ammo bir qator mahalliy xususiyatlarga ham ega hisoblanadi. Xususan, quyidagi asosiy jihatlar tahlil qilinadi:

Xalqaro integratsiya: JARning Afrika Ittifoqi va Janubiy Afrika Rivojlanish Hamjamiyati a'zosi sifatida xalqaro hamkorlikka sodiqligi uning yurisdiksiya siyosatida muhim rol o'ynaydi. Masalan, Janubiy Afrika Rivojlanish Hamjamiyati mintaqaviy sudi qarorlari JARda e'tiborga olinadi.

Ichki qonunchilikning moslashuvi: JARning “Xalqaro xususiy huquq to'g'risida”gi qonuni yo'qligi sababli, sudlar umumiy huquq (common law) va pretsedentlarga tayanadi. Bu esa ba'zi hollarda noaniqlik keltirib chiqaradi.

Texnologik ta'sir: Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bilan onlayn shartnomalar va transmilliy nizolar soni oshmoqda. JAR sudlari bunday ishlarda yurisdiksiyani belgilashda zamonaviy yondashuvlarni qo'llashga majbur.

Janubiy Afrikada chet elliklar ishtirokidagi ishlar bo'yicha yurisdiksiya masalalari xalqaro huquqiy normalar va mahalliy qonunchilikning uyg'unlashuvi asosida tartibga solinadi¹⁰. Nazariy jihatdan, bu masalalar davlat suvereniteti, qonunlar to'qnashuvi va adolatli sudlov tamoyillariga asoslanadi. Amaliy jihatdan, arbitraj va xalqaro kelishuvlar muhim rol o'ynaydi, ammo til to'siqlari, xarajatlar va yurisdiksiya to'qnashuvlari kabi muammolar mavjud.

Yaponiya. Yaponiyada chet elliklar bilan bog'liq ish munosabatlari bo'yicha yurisdiksiya masalalari zamonaviy xalqaro mehnat huquqining muhim jihatlaridan biri hisoblanib, ushbu masalalar Yaponiya Fuqarolik protsessual kodeksi, Mehnat standartlari to'g'risidagi qonun va boshqa tegishli qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Yaponiya Fuqarolik protsessual kodeksining 3-4²-moddasiga ko'ra, shaxsiy ish nizolari Yaponiya sudlarida ko'rib chiqilishi mumkin, faqatgina bunda xodim shartnomasida belgilangan ish

¹⁰ Enforcement of Foreign Civil Judgments Act, 1988. <https://www.gov.za/documents/enforcement-foreign-civil-judgments-act>



joyi Yaponiyada bo'lsa yoki ish beruvchi tomonidan ishlab chiqaruvchi ishga qabul qilingan joy Yaponiyada joylashgan bo'lishi lozim¹¹. Mazkur qoida chet ellik ishlab chiqaruvchilarning millatidan qat'i nazar qo'llaniladi. Masalan, agar Germaniya fuqarosi Yaponiyada joylashgan kompaniyada ishlagan bo'lsa, u Yaponiya sudlarida da'vo arizasi bilan murojaat qilishi mumkin.

Yaponiya Arbitraj qonuniga ko'ra, shaxsiy ish nizolari bo'yicha arbitraj shartnomalari Yaponiyada bekor qilinadi. Biroq, xorijiy arbitraj bo'yicha aniq qarorlar yo'q. Masalan, 2011-yilda Tokio tuman sudi xorijiy arbitraj (AQShda joylashgan) qonuniy deb topilgan bo'lsa-da, bu qaror apellyatsiya sudi tomonidan tasdiqlanmagan (Kojima Law Offices, International Jurisdiction and Governing Law in Labor Disputes).

Amalda, Yaponiya sudlari, xususan, Tokio va Osaka tuman sudlari, ish va mehnat huquqi bo'yicha ixtisoslashgan bo'limlarga ega. Ushbu bo'limlar chet ellik ishlab chiqaruvchilar bilan bog'liq nizolarni ko'rib chiqadi, masalan, ishdan noqonuniy bo'shatish, qo'shimcha ish haqi to'lanmasligi yoki pensiya to'lovlari bo'yicha nizolar. Masalan, agar chet ellik ishlab chiqaruvchi Yaponiyada ishdan bo'shatilgan bo'lsa, u Tokio tuman sudida da'vo arizasi bilan murojaat qilishi mumkin, hatto shartnomada boshqa davlat sudining yurisdiksiyasi ko'rsatilgan bo'lsa ham.

Yaponiyada chet ellik ishlab chiqaruvchilar bilan bog'liq ish munosabatlari bo'yicha yurisdiksiya masalalari Yaponiya Fuqarolik protsessual kodeksi va boshqa tegishli qonunlar bilan tartibga solinadi. Agar ish Yaponiyada bajarilgan bo'lsa, Yaponiya sudlari nizolarni ko'rib chiqish huquqiga ega, hatto shartnomada boshqa davlat sudining yurisdiksiyasi ko'rsatilgan bo'lsa ham¹². Yaponiya qonunlarining majburiy me'yorlari chet ellik ishlab chiqaruvchilar uchun qo'llanilishi mumkin, bu esa ularning huquqlarini himoya qiladi. Ushbu masalalar bo'yicha aniq qarorlar va sud amaliyoti cheklangan bo'lsa-da, Yaponiya sudlari ishlab chiqaruvchilarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan yondashuvni qo'llaydi.

¹¹ Employment & Labour Laws and Regulations Japan 2025

¹² Act on the Civil Jurisdiction of Japan with respect to Foreign States



Bundan tashqari, Yaponiyaning fuqarolik protsessual huquqida chet elliklar ishtirokidagi ishlar bo'yicha yurisdiksiya masalalari aniq belgilangan. Bu masalalar o'z ichiga chet el fuqarolari va kompaniyalarining Yaponiyada sudga murojaat qilish huquqini oladi.

Shuningdek, Yaponiyada chet el fuqarolari, agar ular Yaponiyaning hududida ish ko'rish yoki yapon fuqarolari bilan savdo qilishsa, yapon sudlari ularga sud qilish huquqini berishi mumkin.

Yaponiyaning fuqarolik protsessual huquqi Kontraktual huquq (masalan, yapon kompaniyasining chet el kompaniyasi bilan imzolagan shartnomalari) orqali yurisdiksiyani aniqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Regulation (EU) №1215/2012 of the European parliament of the council, Official Journal of the European Union, 12.12.2012.

<https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/?uri=CELEX:32012R1215>

2. Code of civil of France, naviguer dans le sommaire du code, https://www.legifrance.gouv.fr/codes/section_lc/LEGITEXT000006070721/LEGISCTA000006089696/#LEGISCTA000006089696

3. German Civil Code, Bürgerliches Gesetzbuch (BGB). <https://www.gesetze-im-internet.de/bgb/BJNR001950896.html#BJNR001950896BJNG000102377>

South Africa Arbitration Act, 1965. <https://www.gov.za/documents/arbitration-act>

Wikipedia, Law of the United Kingdom. https://en.wikipedia.org/wiki/Law_of_the_United_Kingdom

4. Alex Mill, Rethinking Jurisdiction in International Law, British Yearbook of International Law, Volume 84, Issue 1, 2014, Pages 187–239. <https://doi.org/10.1093/bybil/bru003>



5. Enforcement of Foreign Civil Judgments Act, 1988.

<https://www.gov.za/documents/enforcement-foreign-civil-judgments-act>

Employment & Labour Laws and Regulations Japan 2025

6. Forsyth, C. F. (2012). *Private International Law: The Modern South African Perspective*. Juta and Company Ltd. <https://juta.co.za/products/private-international-law-5th-edition/>